



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 9-avgust

389-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida” 2024-yil 19-iyuldagi PQ–270-son qarori ijrosi haqida” 354-6-0-Q/24 –sonli qarori to‘g‘risida**

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida” 2024-yil 19-iyuldagi PQ–270-son qarori ijrosi haqida” 354-6-0-Q/24 –sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida” 2024-yil 19-iyuldagi PQ–270-son qarori ijrosi haqida” 354-6-0-Q/24 –sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ–270-son qarori bilan:

Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Respublika komissiyasi) 1-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilganligi;

Quyidagilar Respublika komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilanganligi:

qatag‘on qurboni bo‘lgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o‘rganish, ularni nomma-nom aniqlash, tarixiy xizmatlari haqidagi ma‘lumotlarni, arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni to‘plash va tadqiq etish, ommalashtirish uchun ishchi guruhlar faoliyatini tashkil etish;

qatag‘on qurbonlarining avlodlari va yaqinlari, o‘sha davr voqealariga guvoh bo‘lgan insonlarning xotiralarini yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy manbalarni, noyob suratlarni to‘plash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning hududlardagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma'lumotlar, ashyoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

qatag'on qilingan yurtdoshlarimiz haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ko'p jildlik "Qatag'on qurbonlari" kitobini chop etish hamda ularning nomlarini Toshkent shahridagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasida barpo etiladigan ramziy kitob sahifalariga kiritish ishlarini davom ettirish;

chet eldagi turli fondlar, arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma'rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatgan holda, mavzuga oid ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish;

yosh avlodni Vatanimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning jasorati va ibratli faoliyatini targ'ib etishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish;

Respublika komissiyasining ishchi organi etib Mudofaa vazirligining umumiy rahbarligida Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish instituti, "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi, "Shon-sharaf" davlat muzeyi mas'ul xodimlari va yetakchi mutaxassislaridan iborat guruh belgilanganligi;

siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan Madaniy meros agentligi viloyat bo'limi (M.Qodirov)ga shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda shaxsiy va oilaviy arxivlarda saqlab kelinayotgan qatag'on qurbonlari faoliyatiga bevosita daxldor bo'lgan qo'lyozma, kitob, surat va buyum shaklidagi tarixiy-madaniy ashyolarning davlat muzeylari fondlariga qabul qilib olinishini tashkil etish vazifasi yuklatilganligi e'tiborga olinsin.

4. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov), Yoshlar ishlari bo'limi (M.Mamasobirov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), "Nuroni" jamg'armasi tuman bo'limi (M.Saidmurodova) Respublika komissiyasining qarori asosida:

qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati vakillari bo'lgan shaxslar tug'ilib o'sgan, yashagan xonadonlarni aniqlasin va ularda esdalik lavhalarini o'rnatasin; mahallalarda va umumta'lim maktablarida tegishli tarzda "Qatag'on qurbonlari xotirasi burchaklari"ni, stendlar va boshqa ko'rgazmali vositalarni tashkil etsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (Sh.Kenjaye)ga qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyati, ularning ilmiy-ijodiy merosining mohiyati va tarbiyaviy ahamiyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni keng yoritish, mavzuga oid teleko'rsatuv va radioeshittirishlarni muntazam e'firga uzatish hamda matbuot nashrlari va internet sahifalarida maqolalar e'lon qilib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosri J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**